

ZAMONAVIY TERGOV FAOLIYATINING KORRUPSIYA BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNI ANIQLASH BORASIDAGI XUSUSIYATLARI

Ilmiy rahbar:

Mirzayeva Zuxra-bonu Turakulovna

Toshkent Davlat Agrar Universiteti

„Yurisprudensiya“ yo'nalish 1-kurs talabasi

Kalit so'zlar: *tergov faoliyati, korrupsiya, tergov jarayonida zamonaviy texnologiyalarning o'rni, jinoyat kodeks, normativ- huquqiy hujjatlar.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tergov faoliyatining asosiy jihatlari, tergov jarayonida inson huquqlariga daxl qilmaydigan faoliyatni mansabdor shaxslar tomonidan qonuniylik, shaffoflik prinsipiga rioya qilgan holda amalga oshirilishi uning natijasida asosiy va dolzarb jinoyatlar bo'lmish korrupsiya va boshqa shu kabi jinoyatlarni bartaraf etish usullari tahlil etilgan.*

Аннотация: *В данной статье анализируются основные аспекты следственной деятельности, осуществления должностными лицами деятельности, не затрагивающей права человека, в соответствии с принципом законности и прозрачности, в результате чего выявляются методы устранения коррупции и других подобных преступлений, которые являются. Анализируются основные и актуальные преступления*

Ключевые слова: *следственная деятельность, коррупция, роль современных технологий в процессе расследования, уголовный кодекс, нормативно-правовые документы*

Annotation: *This article analyzes the main aspects of investigative activities, the implementation of activities that do not violate human rights during the investigation process by officials in compliance with the principles of legality and transparency, and the methods for eliminating corruption and other similar crimes, which are major and urgent crimes.*

Keywords: *investigative activities, corruption, the role of modern technologies in the investigative process, criminal code, regulatory legal documents.*

Barchamizga ma'lumki hozirda rivojlangan va rivojlanib borayotgan mamlakatlarda o'sish surati ko'p ma'noda qonun ustuvorligi va iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanishiga bog'liq bu darajada bo'lishi uchun esa qonun talablari davlat standartlariga mos bo'lishi va ularni davlat fuqarolari tomonida qo'llanilishi meyoriy tartibda bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Korrupsiyaning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investisiya muhitini yaratib bo'lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog'i rivojlanmaydi". Inson borki xato qiladi va undan xulosa qiladi va ularni kelgusi hayotida qilmaslik choralarini ko'rishda o'z psixologiyasini, shaxsiyatini rivojlantradi, to'g'riki barcha huquqbuzarliklarda ham inson o'z hohishi holatidan kelib chiqib ayni bir

huquqbuzralikni keltirib chiqarishni maqsad qilib qo'ymaydi, ularga tashqi omillar sabab bo'ladi va bu tashqi taraflama qaralganda oddiy bir ko'rinishda namoyon bo'lishi mumkin. Asil sababi motivi maqsadi surishtirish jarayonlarida aniqlanadi. Huquqbuzarliklarni bartaraf etishda esa har bir davlatning huquqni muhofaza qiluvchi organlari asosiy o'rinda va ularning tarkibida ham aynan bu faoliyatlarni amalga oshiruvchi bir qancha xodimlar o'z faoliyatlarini amalga oshirishadi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar - qonuniylik va huquq tartibotni muhofaza qilish, inson huquqlarini himoyalash, jinoyatchilik va boshqa huquqbuzarliklarga qarshi kurash bilan shug'ullanuvchi idoralar deb ataladi. Bular quyidagilarni tashkil etadi: Ichki ishlar organlari, Prokuratura organlari, Adliya organlari, Davlat xavfsizlik xizmati organlari, Bojxona organlari. Ularning barchasi fuqarolarning huquqlarini himoya qilishda birdek ma'sul hisoblanishadi, ularning faoliyat tartibi O'zbekiston respublikasi normativ-huquqiy hujjatlarida keltirib o'tilgan. Ushbu davlat organlari tarkibida huquqbuzarliklarni to'la ravishda amalga oshirishda tergov va surishtiruv organlari mavjud bo'lib, ularning barchasini asosiy vazifasi huquqbuzarliklarni to'la va xolis bartaraf etishdan iborat. Tergov va surishtiruv faoliyatini tahlil etishdan oldin ular to'g'risidagi asosiy tushunchalar bilan tanishib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tergov qilish - bu huquqiy, jinoiy yoki boshqa biror voqeani aniqlash maqsadida o'tkaziladigan tadbirlar, jarayonlardagi faoliyatlardir. Tergov qilish jarayonida turli xil dalillar to'planadi, dalillar o'rganiladi va guvohlarning ko'rsatmalari olinadi. Tergovning maqsadi odatda voqealar sabablarini aniqlash, jinoyatchini topish yoki qonunbuzarliklarni oldini olishdir. Bu faoliyatlarning asosiy ildizi ham aynan inson sha'ni va qadr-qimmati, huquq va erkinlarining ustuvor ekanligini ta'minlaydi. Inson huquqlari oliy qadriyat bo'lib, huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyatida uni amalda ta'minlash muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yilning 20-iyun kuni Konstitutsiyaviy komissiya bilan uchrashuvda ta'kidlaganidek; „Inson qadrini yuksaltirish haqiqatda davlat hokimiyati organlarining konstitutsiyaviy burchi va ustuvor vazifasi bo'lmog'i kerak“.

Shu nuqtai nazardan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 26-moddasida insonning sha'ni va qadr-qimmati daxlsiz ekanligi degan insonparvar norma mustahkamlangan. Inson sha'ni - bu insonning boshqa odamlar oldida o'z ahamiyatini anglashi yoki insonning ma'naviy obro'sidir. Inson qadr-qimmati - bu shaxsning o'zini o'zi hurmat qilish, jamiyat a'zosi sifatida o'z mavqeyi va ahamiyatini anglashidir.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948-yil) Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (1966), Qiynoqlarga hamda muomila jazolashning boshqa shavqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatini kamsitadigan turlarga qarshi Konvensiya (1984 yil) kabi hujjatlarda asosan inson sha'ni, qadr-qimmatini kamsitadigan, uning or-nomusi, shaxsiy hayotiga ta'luqli ma'lumotlar oshkor bo'lishiga, hayoti va sog'lig'ini xavf ostiga qo'yadigan, unga jismoniy, ma'naviy, ruxiy azob va uqubat yetqazadigan harakatlar qilish ta'qiqlanishi mohiyatini o'zida aks ettirgan. Davlat organlaridagi mansabdor shaxslar ayniqsa

surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari o'z faoliyatida har qanday holatda ham inson sha'ni, or-nomusi va qadr-qimmatiga daxl qilmasligi, kamsitmasligi ularga insoniy munosabatda bo'lishi lozim.

Masalan shaxsiy tintuv tintilayotgan shaxs bilan bir jinsdagi surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan mutaxassis hamda xolislar ishtirokida o'tkazilishi ham inson sha'ni va qadr-qimmatini ta'minlashga qaratilgan maxsus qoida hisoblanib, uni buzish tegishli javobgarlikka sabab bo'ladi. Tergov harakatlari har bir jinoyat ishi bo'yicha amalga oshiriladi: o'g'rilik, odam o'ldirish, korrupsiya, pora olish, pora berish va shu kabi ko'plab jinoyatlarni to'la ochishda ayniqsa hozirgi hayotimizda korrupsiya jinoyati idizi otib bormoqda. Ularni bartaraf etish, ularni kelgusida yanada mustahkamlanib ketmasligi uchun nafaqat mansabdor shaxslar balki oddiy fuqarolar ham ma'suliyat bilan ish olib borishmoqda. Dunyoda korrupsiyaga qarshi kurashish, korrupsion jinoyatlarni aniqlash hamda tez va to'liq ochish tergov qilish, jinoyat sodir etgan barcha shaxslarni fosh qilish, fuqarolarning xavfsizligi va huquqlarini jinoiy tajavuzlarda himoya qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatiga zamonaviy fan va texnologiyalarning ilg'or yutuqlarini, raqamli texnologiyalarni, yangi kriminalistik usul va vositalarni qo'llash mexanizmlarini joriy etish zamon talablariga mos avtomatlashirilgan kriminalistik axborot qidiruv tizimlar va axborot texnologiyalariga ehtiyoj majud. Rivojlangan demokratik davlatlarda korrupsion jinoyatlarning eng xavfli turi hisoblangan poraxo'rlik va noqonuniy faoliyat natijasida olingan daromadarni legallashtirish jinoyatlari bo'yicha maxsus tergov-tezkor tadbirlarni o'tkazishda, xususan, jinoyat ustida shaxsni qo'lga olishda turli elektron kuzatuv vositalari jumladan telefon va boshqa telekommunikatsiya moslamalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish, suniy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalanish hamda moliyaviy razvedka kabi maxsus usullaridan foydalanilmoqda. Shu sababli ham korrupsion jinoyalarga qarshi kurashda huquqni muhofaza qiluvchi orgalarning imkoniyatlari ancha oshdi. Mazkur davlatlarda qo'llanilayotgan tergov qilishning samarali kriminalistik metodikasini bugun milliy qonunchiligimiz va soha amaliyotiga transformatsiya qilish masalasi katta ahamiyat kasb etib bormoqda. Shu sababli ham chet-el tajribasi va zamon bilan hamnafas ravishda faoliyatni yanada takomillashtirish muhimdir.

Korrupsiyaga qarshi kurashish jarayonida xalqaro tashkilotlar orasida Birlashgan Millatlar Tashkiloti alohida o'rin tutadi. BMT tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan hujjatlar borasida 2003-yil dekabr oyida qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi Konvensiya muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi ushbu Konvensiyaga 2008-yil 7-iyulda qabul qilingan qonun asosida qo'shildi. Korrupsiyaga qarshi kurashishda BMT bilan bir qatorda Yevropa Ittifoqi, Jahon banki, Transparency International xalqaro nohukumat tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti hamda Butunjahon bojxona tashkiloti kabi tashkilotlar o'z faoliyatlarida bu masalaga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Korrupsiya, davlat boshqaruvining samaradorligini va iqtisodiy rivojlanishni sezilarli darajada pasaytiradigan omil sifatida, dunyoning ko'plab davlatlarida jiddiy muammo bo'lib qolmoqda. Har bir davlatda inson qadri uning huquqlari birinchi o'rinda turmog'i lozim. Xususan, huquqbuzarlik sodir etgandagi ushlar chog'idan toki sudda aybdor yoki absiz deb

topgunga qadar. Shu ma'noda yangi tahrirdagi O'zbekiston respublikasi Konstitutsiyasining 27-moddasida keltirilgaidek „Shaxsni ushlab turish chog'ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilish asoslari tushuntirilishi shart“ shaxsni ushlab turish vaqtida unga huquqlari va ushlab turish asoslarining tushuntirilishi (Miranda qoidasi) xalqaro huquqda umume'tirof etilgan norma bo'lib surishtiruv, tergov, sud jarayonlarida qonun buzilishiga yo'l qo'ymaslikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Miranda qoidasi o'z tarixiga ega. 1966-yilda jinoyat sodir etgan E.Mirandani hibsga olgan AQSH Arizona shtati politsiyasi uni so'roq qilishda avval gumon qilinuvchi sifatida huquqlari tushuntirilmaganligi tufayli, keyinchalik uning aybiga iqrorigi to'g'risidagi ko'rsatmalari asosida chiqarilgan hukm AQSH Oliy sudida bekor bo'lgan. “Miranda” qoidasiga binoan shaxsni ushlab turish chog'ida uning huquqlari va ushlab turilish asoslari tushuntirilishi, ayblanuvchi ayblovning mohiyati va asoslaridan foydalanishi, jinoyat ishlarida o'ziga qarshi guvohlik berishiga majbur qilinmasligi, malakali yuridik yordam bilan ta'minlanishini talab etadi.

Ko'pchilik fuqarolarimiz tergov organlari tomonidan kimdir qo'lga olganligi, u nima uchun ushlanganligi aytmassligidan, aytilganida ham ushlab turish sabablari va aybnomaning asl ma'nosini tushunmasligidan shikoyat qiladilar. Ayrim hollarda , ushlangan shaxs o'z huquqlarini bilmagan sharoitda tergov organlari tomonidan aybiga iqrorlik ko'rsatmalari berishga majburlashni xavfi mavjud. Aynan protsessual ushlab turish vaqtida inson og'ir ruhiy holatga tushadi va huquqiy yordamga ayniqsa muhtojdir, chunki u bunday murakkab vaziyada jinoyatda aybdor yoki aybsizligini isbotlash majburiyati unga emas, aksincha, tergov organlariga to'liq yuklatilganligini anglay olmaydi. Muhimi mazkur qoidaga ko'ra shaxsning huquqlari u yaxshi tushunadigan tilda tushuntirilishi va bu til aynan uning ona tili bo'lishi shart bo'lmay, shaxs odatda muloqot tomondan cheklanishiga sabab bo'lmoqda. Misol uchun u biladigan va yaxshi tushunadigan til bo'lishi talab etiladi. Shu nuqtai nazaridan, ushbu qoida ushlangan shaxsga uning huquqlari real ta'minlanishini kafolatlaydi.

Ushbu qoidaning Konstitutsiyada mustahkamlab qo'yilishining asosiy sababi shaxsning asossiz ushlanishi, advokat ishtirokisiz yoki o'ziga qarshi ko'rsatma berishga majbur etmaslikni oldini olish. Ayniqsa, o'z huquqlarini yaxshi biladigan va talab qila oladigan insonlarga nisbatanm tergov harakatlarini qonunga xilof amalga oshirish ham ancha pasayadi. Shu o'rinda normativ-huquqiy hujjatlarimizda ham aynan yuridik kuchi jihatdan keltirilgan bir qancha normalarni bir biriga mos kelmasligini ham inson huquqlarini bir tomondan cheklanishi desak mubolag'a bo'lmaydi. Misol uchun O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasining 55-moddasida keltirilganidek „har kimga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakat va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi“ deb ta'kidlab qo'yilgan. Vaholanki, O'zbekiston Respublikasi jinoyat protsessual kodeksining 358-moddasiga ko'ra tergovchining harakatlari va qarorlari ustidan shikoyat tergov bo'linmasi boshlig'iga va ishni tergov qilishda qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat olib borayotgan prokurorga beriladi. Prokurorning harakatlari va qarorlari ustidan shikoyat yuqori turuvchi prokurorga beriladi . Konstitutsiya oliy bosh qomusimiz hisobalanib unga

barcha qonunlar, kodekslar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning normalari mos bo'lishi kerak lekin bu kolleziyada inson o'z konstitutsiyaviy huquqlaridan kelib chiqib sudga murojat qilish huquqi cheklab qo'yilmoqda. Bu esa kelgusida odil sudga emas, balki bir-biriga bo'ysunuvchi davlat organining bir tarmogida korrupsiya holatlarini keltirib chiqarmasligiga shubha yo'qligini isbotlaydi.

Amalga oshirilgan islohotlar korrupsiyaviy jinoyatlarning sodir etilish dinamikasiga muayyan darajada ta'sir qildi. Jumladan, 2020-yilda korrupsiyaviy jinoyatlar bo'yicha jami 1723 nafar, shundan 9 nafar respublika darajasidagi, 45 nafar viloyat darajasidagi, 1669 nafar tuman va shahar darajasidagi mansabdor shaxslar jinoiy javobgarlikka tortib, korrupsiya oqibatida yetkazilgan 500 mlrd so'mlik moddiy zararining 71 foizi yoki 355 mlrd so'mi aybdorlardan tergovdavomida undirilgan bo'lsa, 2021-yilning 6 oyi mobaynida 2544 nafar mansabdor shaxsga nisbatan korrupsiya holatlari bilan bog'liq bo'lgan 1676 ta jinoyat ishlari tergov qilinib, sudlarga yuborilgan.

Xulosa qilib aytganda, aynan bu normalar insonlarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ta'minlashi, sudga har bir fuqaro hoh tergov jarayonida, hoh tergovga qadar tekshiruv faoliyatida, surishtiruv jarayonida, o'z huquqlaridan to'laqonli foydalangan holda mansabdor shaxslarning chiqargan qarorlari ustidan to'g'ridan-to'g'ri sudga murojaat qilish tartibi Konstitutsiyaga mos belgilanishi kerak, bu esa qonunchilik hujjatlariga o'zgartirish kiritilishini talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 25-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.
4. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi.